XALQ DEPUTATLARI XATIRCHI TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-3-029-5-77-K/24 Xatirchi tumani

Xatirchi tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonliQonuniga muvofiq, xalq deputatlari Xatirchi tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuni ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuniga (keyingi o‘rinlarda - Qonun deb ataladi) muvofiq, Xatirchi tumani mahalliy budjetining 2025-yil uchun budjet daromadlari 142 275,8 mln.so‘m, xarajatlari 142 275,8 mln.so‘m etib belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2025-yil uchun Xatirchi tumanini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va 2026-2027-yillarga maqsadli prognozi mo‘ljallari 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Quyidagilar:

2025-yil uchun Xatirchi tumani mahalliy budjeti daromadlari prognozi 2-ilovaga muvofiq;

2025-yil uchun Xatirchi tumani mahalliy budjetidan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq;

2025-yil uchun Xatirchi tumani mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman va shaharlar mahalliy budjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Navoiy viloyati bo‘yicha G‘aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

5. 2025-yil uchun Xatirchi tumani mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozlari 5-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. 2025-yil uchun Xatirchi tumani mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 2 211 617,0 ming.so‘m miqdorida belgilansin.

Bunda davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlari joriy etilganligi bo‘yicha tuman budjetining zaxira jamg‘armalari ushbu mexanizmlar joriy etilgan yildan oldingi yildagi hajmdan kam bo‘lmagan miqdorlarda shakllantiriladi hamda qo‘shimcha mablag‘larni shakllantirish tegishincha yuqori turuvchi budjetlarning zaxira jamg‘armalari mablag‘larini kamaytirish hisobiga amalga oshiriladi.

2025-yil uchun Xatirchi tumani mahalliy budjeti aylanma kassa mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

7. Qonun bilan 2025-yilda xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjetni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

8. 2025-yilda quyidagi soliq turlari:

tuman budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan, jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tushumlarining 50 foizi (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar.

viloyat va tuman hokimlarining qarorlari asosida sotiladigan davlat mulki ob’ektlarini sotishdan tushadigan mablag‘lar tegishli ravishda ob’ekt joylashgan tuman mahalliy budjetiga va viloyat budjetga teng ulushlarda taqsimlanadi.

2025 yilda transfertdan chiqarish uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i bo‘yicha to‘lovni Xatirchi tumaniga 100 foiz miqdorda o‘tkazilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

9. Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan:

- tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan soliqlarni va boshqa turdagi daromadlarni (shu jumladan ushbu qarorning uchinchi, to‘rtinchi va beshinchi qismlarida ko‘rsatilgan daromadlarni) taqsimlash;

- daromadlarning prognozini oshirib bajarishdan olingan mablag‘larni hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish uchun berilishiga haqliligi;

- xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tumanning ommaviy dam olishga va (yoki) turizmga ixtisoslashtirilgan hududlarda mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy

shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga o‘sib boruvchi koeffitsentlarini joriy etishga haqliligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

10. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Baxriddinov), iqtisodiyot va moliya bo‘limi (O.Ernazarov), soliq inspeksiyasi (A.Asatov) va tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

mahalliy budjetni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjetning prognoz ko‘rsatkichlarini o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

mahalliy budjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

11. Tuman soliq inspeksiyasi (A.Asatov)ga:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirilishini;

barcha soliq turlaridan doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralari ko‘rilishini;

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasi oshirilishini;

Kadastr agentligining tuman bo‘limi bilan birgalikda tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarning to‘liq hisoblanishini;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazorati o‘rnatilishini hamda kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazilishini ta’minlash topshirilsin.

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsin.

12. Tuman soliq inspeksiyasi (A.Asatov) Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasi Navoiy mintaqaviy inspeksiyasi hamda tuman hokimligi bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirish ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy

budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheyderlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

13. Majburiy ijro byurosi tuman bo‘limi tuman soliq inspeksiyasi bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlarni ko‘rib borsin.

14. Tuman hokimligi jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

15. Tuman hokimligi tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra tumanda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini "e-auksion" electron savdo platformasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish choralarini ko‘rsin.

16. Tuman hokimligi tegishli tashkilotlar bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’ektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

17. Tuman Suv yetkazib berish xizmati DM (B.G‘iyosiddinov), tuman soliq inspeksiyasi (A.Asatov), tuman hokimligi bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetga to‘liq undirib olish bo‘yicha tizimli ishlarni olib borilishini ta’minlasin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

18. Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflar asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qarori loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga, natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga, monitoring qilishga;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishiga hamda ushbu

mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

19. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Baxriddinov), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tuman hokimligi, tegishli tashkilotlar rahbarlari:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashiga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

20. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

21. Mazkur qaror “Xatirchi hayoti” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

22. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

23. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi ADIZOV UMIDJON HASANOVICH

Xalq deputatlari Xatirchi tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-029-5-77-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Xatirchi tumanini 2025-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy prognoz ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlar	2025-yil uchun prognoz	Mo‘ljal	
			2026-yil	2027-yil
1.	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd.so‘m	x	x	x
2.	Yalpi hududiy mahsulotning o‘sish sur’ati, foizda	x	x	x
3	Sanoat maxsulotning o‘sish sura’ti, foizda	5,8	6,4	7,0
4.	Qishloq, O‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sura’ti, foizda	8,1	8,9	9,8

5.	Xizmatlar ko‘rsatishning o‘sish sur’ati, foizda	6,8	7,5	8,2

Xalq deputatlari Xatirchi tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-029-5-77-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Xatirchi tumani mahalliy budjeti daromadlarining
2025-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
JAMI		**142 275 800,0**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	43 579 000,0
2	Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'i	1 266 000,0
3	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	14 896 000,0
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 004 000,0
5	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	10 500 000,0
6	Yuridik shaxslar yer solig‘i	15 067 000,0
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	18 400 000,0
8	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	18 944 000,0
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	5 502 800,0
10	Aylanmadan olinadigan soliq	10 706 000,0
11	Davlat mulkini ijarasidan tushumlar	411 000,0

Xalq deputatlari Xatirchi tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-029-5-77-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2024-yil uchun Xatirchi tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
	Xarajatlar miqdori, Jami	**142 275 800,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**142 275 800,0**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
	Tuman va shaxar mahalliy budjetlariga transfertlar	
1	**Umumiy ta’lim**	**13 690 825,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	13 690 825,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
2	**Maktabgacha ta’lim**	**8 836 343,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	8 836 343,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3	**Madaniyat bo‘limi**	**8 543 457,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 765 366,0
	Musiqa va san’at maktablari	4 778 091,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
4	**Sport bo‘limi**	**10 595 405,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	10 595 405,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5	**Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»**	**46 200,0**
	shu jumladan:	

	joriy xarajatlar	46 200,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6	**Ijtimoiy ko‘nikma markazi**	**64 893,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	64 893,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	**29 516 619,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	25 326 516,0
	Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarini ta’mirlash xarajatlariga	4 190 103,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8	**Fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazi**	**588 083,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	588 083,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9	**Hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi**	**623 463,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	623 463,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10	**"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari**	**1 961 000,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 961 000,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
11	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**15 371 881,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	15 371 881,0
	Tuman xokimligi xarajatlariga	3 441 123,0
	Xalq qabulxonasi xarajatlariga	146 096,0
	Xokim yordamchilari xarajatlariga	8 187 767,0
	Kengash xarajatlariga	305 485,0
	Xotin qizlar bo‘limi xarajatlariga	3 291 410,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12	**Iqtisodiyot va moliya bo‘limi**	**2 582 624,0**
	shu jumladan:	

	joriy xarajatlar	2 582 624,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
13	**Yoshlar ishlari agentligi bo‘limi**	**8 611 037,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	8 611 037,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
14	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi**	**2 290 769,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 290 769,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
15	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi**	**4 301 864,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 301 864,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
16	**Zahira jamg‘armasi**	**2 211 617,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 211 617,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
17	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**26 902 516,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	26 902 516,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
18	**Mening maktabim jamg‘armasi**	**5 537 204,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 537 204,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

Xalq deputatlari Xatirchi tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-029-5-77-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Umumdavlat soliqlaridan Xatirchi tumani mahalliy budjetiga ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Aylanmadan olinadigan soliq	Qurilish materiallari bo'yicha uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq
1	Xatirchi tumani	100	100	100	50	100	100	100

Xalq deputatlari Xatirchi tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-029-5-77-K/24 -son qaroriga
5-ilova

2025-yil uchun Xatirchi tumanining budjet daromadi va xarajati prognozi

ming so‘mda

Hudud nomi	**Daromad**	**Xarajat**
Xatirchi tumani	142 275 800,0	142 275 800,0

Xalq deputatlari Xatirchi tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-029-5-77-K/24 -son qaroriga
6-ilova

Xatirchi tuman mahalliy budjetining 2025-yilda shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘ining yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag'lari miqdori

ming so‘mda

T/r	**Hudud nomi**	**Miqdori**
1	Xatirchi tumani	716 082,0